

## II. SANOAT

2023- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 105 762,5 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,1 %ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 23,7 %ni, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati 106,1 %ni, iste’mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,2 %ni tashkil etdi.

### **2023-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish**

	<i>mldr. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi, %</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>105 762,5</b>	<b>105,1</b>
<b>Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>4 647,1</b>	<b>102,7</b>
<i>shundan:</i>		
Ko‘mir va lignit, xom neft va tabiiy gaz qazib olish	1 468,9	103,7
Metall rudalarini qazib olish	2 410,9	104,7
Boshqa turdag'i tog‘-kon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish	720,9	93,5
Tog‘-kon sanoati bo‘yicha xizmatlar	46,4	0,0
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>90 027,5</b>	<b>104,7</b>
<i>shundan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	13 829,2	119,9

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi, %</i>
To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	9 556,1	116,7
Yog‘och va po‘kak buyumlar, poxol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	2 398,1	88,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	191,6	85,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	1 935,8	307,5
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	7 504,5	92,9
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	269,5	105,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	4 544,8	101,4
Metallurgiya sanoati	41 731,8	101,1
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	7 971,2	125,4
Ishlab chiqarilgan boshqa tayyor mahsulotlar	94,4	44,2
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>10 786,7</b>	<b>115,9</b>
<b>Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>301,2</b>	<b>52,2</b>
<b>Iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish</b>	<b>22 401,4</b>	<b>106,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	12 134,4	95,0
nooziq-ovqat tovarlari	10 267,0	123,1

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(umumiylajmga nisbatan % hisobida)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)**

O'chov birligi	2023- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida
----------------	-------------------------	---

**Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Chaqiq tosh	<i>t</i>	387 586,1	104,0
Kaolin	<i>t</i>	866 588,2	106,2

**Qayta ishslash sanoati**

Yangi so'yilgan yoki sovutilgan go'sht	<i>t</i>	35,7	138,4
--	----------	------	-------


	<i>O'lclov birligi</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida</i>
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>t</i>	224 808,0	66,0
O'simlik yog'i (tozalangan)	<i>t</i>	27 784,4	3,1 m.
Paxta tolasi	<i>t</i>	62975,6	110,5
Paxta chigiti	<i>t</i>	91569,5	96,2
Paxta linti	<i>t</i>	3594,1	105,4
Aroq	<i>ming l</i>	4 008,7	66,1
Uzum vinosini distillash yoki uzumni siqish natijasida olingan spirt nastoykalari	<i>ming l</i>	93,3	127,3
Trikotaj yoki to'qilgan kiyimlar	<i>ming dona</i>	4 175,5	74,0
Karbamid	<i>ming azot tonna</i>	97,5	110,2
Ammoniy sulfat	<i>ming azot tonna</i>	45,6	108,6
Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)	<i>ming azot tonna</i>	153,1	91,2
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element – azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	<i>ming tonna</i>	188,0	71,9
Suvsız ammiak	<i>ming tonna</i>	412,1	90,1
Sulfat kislota	<i>ming tonna</i>	1 003,6	90,0
Denaturalmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmasagan etil spirti	<i>ming l</i>	15 001,8	100,3

	<i>O'chov birligi</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida</i>
Portlandsement	<i>ming t</i>	2 779,9	67,8
Sement klinkerlari	<i>ming t</i>	1 540,1	72,4
Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar	<i>t</i>	238 995,0	115,7
Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan	<i>t</i>	728 570,0	120,0
Legirlanmagan po'latdan shakldor va maxsus, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan, boshqa ishlov berilmagan profillar	<i>t</i>	42 000,0	20,7
Elektroenergiya	<i>mln. kVt/s</i>	20 447,0	104,5
Issiqlik energiyasi	<i>ming Gkal</i>	3 109,2	85,9


**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarishi va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 'sish sur'atlari**

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %da)

*Sanoat mahsulotlari*




*Iste'mol mollari*



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (239 402,2 ming so‘m), Chirchiq (59 438,7 ming so‘m) va Bekobod (97 954,3 ming so‘m) shaharlarda o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (29 740,3 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 7 411,3 ming so‘m bo‘lgani holda, Chirchiq shahrida 9 801,7 ming so‘mni, Zangiota tumanida 7 721,9 ming so‘mni, Qibray tumanida 14 206,3 ming so‘mni, Ohangaron shahrida 38 933,9 ming so‘mni tashkil.


**2023-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha  
kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Parkent (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 89,0 %), Toshkent (89,3 %) va Zangiota (93,6 %) tumanlarida hamda eng kichik ulush Olmaliq (2,3 %), Bekobod (2,3 %) shaharlarda kuzatildi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %da**

**2023- yil yanvar-dekabr**



**2022- yil yanvar-dekabr**




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 20 616,6 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Jumladan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 19,5 %ni (2022- yil yanvar-dekabr oylarida – 17,2 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish**

	2023- yil yanvar-dekabr mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi, %
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>105 762,5</b>	<b>105,1</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	3 006,1	116,5
Olmaliq	34 358,3	100,2
Angren	5 417,6	106,3
Bekobod	10 093,3	97,5
Ohangaron	5 396,0	102,1
Chirchiq	10 133,9	109,2
Yangiyo‘l	772,9	98,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	959,4	100,5
Ohangapon	7 835,0	112,4
Bekobod	382,8	107,5
Bo‘stonliq	2 604,7	100,8
Bo‘ka	350,6	100,2
Quyi Chirchiq	1 082,9	105,6
Zangiota	3 720,5	100,3
Yuqori Chirchiq	2 877,0	101,1
Qibray	7 704,7	103,2
Parkent	812,0	114,2
Piskent	621,7	107,5
O‘rta Chirchiq	1 755,2	106,3
Chinoz	924,3	105,6
Yangiyo‘l	2 032,2	106,0
Toshkent	2 921,4	106,7

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi  
(jamiga nisbatan % hisobida)**



Viloyat bo'yicha ushbu korxonalarining ishlab chiqarish hajmi eng ko'proq Olmaliq (salmog'i 32,5 %), Bekobod (9,5 %), Chirchiq (9,6 %) shaharlari, Qibray (7,3 %) va Ohangaron (7,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi eng yuqori ko'rsatkichi Nurafshon (116,5 %) shahri, Parkent (114,2 %) va O'rta Chirchiq (106,3 %) tumanlarida aks etdi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida  
mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**


Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Mazkur dastur doirasida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida loyihaga kiritilgan 427 ta sanoat korxonalari tomonidan 5 428,7 mlrd. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 100,4 mln. AQSh dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 1031 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

	<b>2023- yil yanvar-dekabr</b>	<b>2022- yil yanvar-dekabr</b>
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	427	506
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	116	111
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so‘m</i>	5 428,7	3 614,9
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	100,4	97,8
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	1031	1110

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi  
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %da)**



Hisobot davrida jami 22 401,4 mlrd. so‘mlik iste’mol mollari ishlab chiqarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,1 %ni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,2 %ni tashkil qildi.

Jumladan, 12 134,4 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, aroq-vino mahsulotlari va pivo (2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan 95,0 %) hamda 10 267,0 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (123,1 %) ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida iste’mol mollarini ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Ohangaron (viloyat bo‘yicha iste’mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi 17,1 %), Qibray (11,0 %), Zangiota (5,8%) tumanlarida hamda Bekobod (12,0 %), Ohangaron (7,1 %), Angren (6,3 %) shaharlarida kuzatildi.

Eng kichik ulush esa Quyi Chirchiq (1,4 %), Piskent (1,1 %), Bekobod (0,5 %), Bo‘ka (0,4 %) tumanlari hamda Yangiyo‘l (3,4 %), Nurafshon (2,0 %) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

**Hududlar bo‘yicha xalq iste’mol mollari ishlab chiqarilishi**

	<i>mldr. so‘mda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %da</i>	<i>Sanoat ishlab chiqarishga nisbatan ulushi, %da</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan %da</i>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>22 401,4</b>	<b>100,0</b>	<b>21,2</b>	<b>106,1</b>
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	437,9	2,0	14,6	141,3
Olmaliq	815,3	3,6	2,4	188,4
Angren	1 414,2	6,3	26,1	130,3
Bekobod	2 678,3	12,0	26,5	101,5
Ohangaron	1 597,6	7,1	29,6	93,7
Chipchiq	1 671,1	7,5	16,5	132,8
Yangiyo‘l	274,9	1,2	35,6	80,2
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo‘rg‘on	372,1	1,7	38,8	68,9
Ohangapon	3 830,6	17,1	48,9	93,3
Bekobod	105,5	0,5	27,6	83,7
Bo‘stonliq	736,0	3,3	28,3	98,7
Bo‘ka	96,4	0,4	27,5	97,1
Quyi Chirchiq	318,1	1,4	29,4	118,9
Zangiota	1 306,5	5,8	35,1	89,6
Yuqori Chirchiq	549,7	2,5	19,1	81,9
Qibray	2 474,1	11,0	32,1	125,3
Parkent	535,6	2,4	66,0	127,7
Piskent	240,8	1,1	38,7	81,1
O‘rta Chirchiq	649,3	2,9	37,0	125,9
Chinoz	312,3	1,4	33,8	107,4
Yangiyo‘l	760,8	3,4	37,4	92,9
Toshkent	1 224,3	5,4	41,9	121,5

**2023-yil yanvar-dekabr oylarida jami sanoat ishlab chiqarish hajmida mahalliy  
ahamiyatga ega korxonalar va davlat ulushi yuqori bo‘lgan korxonalar  
tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi**  
(*jami sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, %da*)



■ Davlat ulushiga ega

■ Davlat ulushiga ega emas

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun qulayroq iqtisodiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan ishlar, mahalliy ahamiyatga ega korxonalar (davlat ulushi yuqori bo‘lgan korxonalarsiz) rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48 979,8 mlrd. so‘mmi va jami sanoatdagi ulushi 46,3 % tashkil etdi (2022-yil yanvar-dekabr oylarida mos ravishda 40 0917,0 mlrd. so‘m va 42,7 % bo‘lgan).